

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
XORIJIY TILLAR FAKULTETI
FRANSUZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

РЕФЕРАТ

BAJARDI : Xasanova M.

ILMIY RAHBAR : MAMASOLIYEVA G.

MAVZU : Fransuz va o'zbek tillarida unli tovushlar
oppozitsiyasi qiyosiy tipologiyasi



Andijon -2016

Fransuz va o'zbek tillarida unli tovushlar oppozitsiyasi qiyosiy tipologiyasi.

Kirish.

1-Bob. Unlilar sistemasi

1.1.§ Fransuz tili unlilari sistemasining o'ziga xos xususiyatlari.

1.2.§ O'zbek tili unlilari sistemasining o'ziga xos xususiyatlari.

2-Bob. Unlilar oppozitsiyasi.

2.1§. Fransuz va o'zbek tili paradigmatic holatdagi unlilar oppozitsiyasi.

2.2§. Fransuz va o'zbek tili syntagmatic holatdagi unlilar oppozitsiyasi.

Xulosa.

Adabiyotlar ro'yxati.

K I R I S H

Yurtboshimiz I.A.Karimov “ Biz ta’lim tizimida oluvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko’nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyodagi ro’y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o’zgarishlardan atroflicha xabardor bo’lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o’rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz”, - deydilar.

Til jamiyat hayotida bu qadar katta ahamiyatga ega ekan, uning o’ziga xos jihatlarini chuqur o’rganish hozirgi tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Tilshunoslik tarixida tovush sistemasini o’rganish ikki davr bilan izohlanadi:

1) “fonema” tushunchasi paydo bulgunga qadar bo’lgan davr;

2) fonologiya, ya’ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda fonema nazariyalarining yuzaga kelish davri. Birinchi davrda fonema va tovush, ba’zan harflar o’rtasidagi farq aniq ko’rsatilmay, tovushlarning talaffuzi so’zlardagi u yoki bu holatda etimologik o’zgarishlarga uchrashiga ko’prok, e’tibor berilgan.

“Fonema” tushunchasini birinchi bo’lib taklif etganlar qatorida umumiy fonologiyaning asoschisi I. A. Boduen de Kurtene, uning shogirdi N. V. Krushevskiy, Fransuz olimi P. Passi, ingliz tilshunosi G. Supt shvetsariyalik mashhur tilshunos F. de Sossyur va rus olimi P. Uslarning² nomlari bor. “Fonema” atamasi va tushunchasini sovet turkologiyasiga birinchi marta 1920 yillarda professor N. K. Dmitriev kiritgan bo’lsa, uni o’zbek tilshunosligida o’sha yillarda professor E. D. Polivanov qo’llagan. “Fonema” atamasi va tushunchasiga chuqur asos solgan olim I. A. Boduen de Kurtenedir. Hozirgi

zamon tilshunosligida mavjud bo'lgan fonologiya nazariyalarining zabardast olim Boduen yaratgan poydevoriga suyanmasdan iloji yo'q..

Boduenning talantli shogirdlaridan biri bo'lgan akademik L. V. SHcherba yaratgan fizik fonologiya nazariyasi ko'proq, rus va fransuz tillari misolida yoritildi. Boduenning mashhur shogirdi professor E. D. Polivanov alohida fonologiya nazariyasini yaratmagan bo'lsa ham, ustozining fonemaga psixologik va morfologik qarashlarini ko'proq funktsional jihatdan asoslashga o'rindi va turkiy hamda boshqa ko'pgina

tillar misolida ko'rsatib berdi. Hozirgi tilshunoslikdagi ikki ta'limot-Moskva va Leningrad fonologiya maktablari nazariyalari turkiy tillarga xam tatbiq etilmoqda. Til o'zaro uzviy bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi elementlar munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik ekanligi barcha tilshunolar tomonidan e'tirof etilgan. Til sistema ekan, uni tashkil etuvchi elementlar o'rtasida muayyan munosabatlar mavjudligi ham isbot talab etmaydigan haqiqatdir. SHuning uchun elementlar o'rtasidagi munosabat turlarini o'rganish til sistemasining mohiyatini ob'ektiv baholashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda biror fan yo'qki, o'zi o'rganayotgan ob'ektga sistema sifatida yondoshmagan bo'lsin. CHunki har qanday fan yo'nalishi o'rganayotgan ob'ektiniig o'ziga xos xususiyatlarini adekvat holda aks ettira olsagina ob'ektivlikka erisha oladi. SHuning uchun ob'ektiv olam elementi va uning fandagi tavsifi adekvatligi masalasi fanning nechog'lik ob'ektivlikka erishganligini belgilaydi.

Shu jihatdan, sistema tarkibida uni tashkil etgan elementlar o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda o'rganish va shu yo'l bilan tilning ko'p bosqichli murakkab pog'onaviy ichki tuzilishga ega ekanligini yoritish, lisoniy birliklar o'rtasidagi munosabatlarni yaxlit tasavvur qilish uchun munosabatlar tizimidagi alohida-alohida munosabat turlarini o'rganish til fanini adekvat holda aks ettirishga yordam beradi.

Ma'lumki, lisoniy birliklar o'rtasidagi munosabatlar xilma-xildir. Ularning har birini izchil o'rganish hozirgi tilshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Ilmiy tadqiq etishni talab etadigan munosabat turlaridan biri lisoniy birliklar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatdir.

Mavzu hozirgi kungacha Fransuz va o'zbek tilida tovushlarni alohida o'rganilgan bo'lsa ham, lekin ikkala til undoshlar sistemasi oppozitsiyasi o'zaro chog'ishtirilib o'rganilmagan.

1.1.§ FRANSUZ UNLILARI TALAFFUZINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fransuz unli tovushlarining tembri bo'g'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladigan rezonator xarakteriga bog'liq bo'ladi. Unli tovushlarni tasniflashda ana shu rezonator holatini o'zgartiruvchi til, lablar, yumshoq tanglay kabi aktiv nutq organlari hoqida so'z yuritamiz.

Aktiv nutq organi bo'lgan til uch «qismga, ya'ni til oldi qismi, til o'rta qismi va til orqa qismlariga bo'linadi. Tovushning talaffuz qilishda tilning og'iz bo'shlig'idagi vertikal harakati unlining ochiqlik yoki yopiqligina belgilaydi. Fransuz unlilari til o'rta qismining ko'tarilish xarakteriga ko'ra to'rt ochiqlik darajasiga ega:

yopiq [i-*ÿ*-u]

yarim yopiq [e-*é*-o]

yarim ochiq [s-x-o-i-x] va

ochiq - [a- *a* -*ā*]

Tilning og'iz bo'shlig'idagi og'iz gorizontal harakatiga ko'ra unlilar til oldi va til orqa unlilariga ajraladi. Til oldi unlilarini talaffuz qilishda til oldiga harakat qilib, uning uchi old tishlarga qadaladi.

Til orqa unlilarini talaffuz qilishda til uchi old tishlardan olinib, orqaga tortiladi.

Til oldi unlilari: [i-e-E-a- *ÿ*- *é* - *œ* - *Ê*-*æ*]

Til orqa unlilari: [*i* - o-*ō* - a- *ā*-*ō*]

Unli tovushlarning talaffuzida lablar faol ishtirok etadi. SHunra ko'ra unlilar lablangan va lablanmagan unlilarga bo'linadi. Lablangan unlilarni talaffuz qilishda lablar doira shaklida oldinga cho'ziladi, lablanmagan unlilarda esa lablar yon tomonlarga tortiladi.

Lablangan unlilar: [*ÿ*- *é*- *œ*- i-o- - *ō*- *æ*]

Lablanmagan unlilar: [*i* -e -E -a- *Ê*- *ā*-a. /

Unli tovushlarni farqlashda yumshoq tanglay ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, talaffuz jarayonida yumshoq tanglay pastga tushib, havo oqimi burun bo'shlig'i orqali o'tib, burun tovushlarini, agarda yumshoq tanglay ko'tarilsa havo oqimi og'iz bo'shlig'i orqali o'tib, tovushlarini hosil qiladi.

Burun tovushlari: [ã-õ-~~Ê~~-œ]

Og'iz tovushlari: [I-e -E - a.- j̣ - f- œ -o-- i - a]

1. Fransuz tili unli tovushlarga anchagina boy bo'lib, ular aniq, ravon hamda tiniq talaffuz qilinadi, chunki ularni talaffuz qilishda nutq organlari egallagan muayyan holat talaffuz tugaguncha, ya'ni boshqa tovush talaffuziga o'tilgunga qadar saqlanib qolinadi. Aktiv nutq organlarining harakati faqat bir tovush talaffuzidan ikkinchisiga, ya'ni unli talaffuzidan undosh talaffuziga yoki aksincha o'tish vaqtida sodir bo'lishi, Fransuz tili unlilarida diftonglashuv holatining yo'qligidan dalolat beradi.

2. Fransuz unli tovushlari talaffuzidagi ikkinchi xususiyat ularning reduksiya uchramasligidir. Reduksiya urg'usiz bo'g'indagi unlilarning sifat jihatdan o'zgarishi, ya'ni qisqa talaffuz qilinishidir. Fransuz unlilari urg'uli bo'g'inda ham, urg'usiz bo'g'inda ham hech bir o'zgarishsiz talaffuz qilinadi:

On sonne [õ'son]

Sopper [so'n e]

Il imite [ili'mit]

Imitation [imitasjõ]

O'zbek tiliga xos bo'lgan bu xususiyat Fransuz tilini o'rgangan o'zbek talabalariga ta'sir ko'rsatishi va ular **directeur** so'zini [d(i)rekt(oe)r] tarzida talaffuz qilib, qo'pol xatoga yo'l qo'yishlari mumkin. Bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun talabalardan o'rganilayotgan tilning talaffuz normalarini puxta egallashlarini talab qilish lozim.

3. Fransuz tili unlilari uchun ma'lum fonetik holatlarda aniq talaffuz etilish xosdir. Buni unlilarning cho'ziqligi deyiladi. Urg'uli bo'g'inda kelgan unlilar, urg'usiz bo'g'indagi unlilarga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Fransuz tilidagi barcha burun unli tovushlari va [a-o--i] og'iz unli tovushlari tarixiy

cho'ziqlikka ega, ammo bu tovushlar ham urg'usiz bo'g'inda bir oz qisqaroq talaffuz qilinadi. SHuning uchun Fransuz tilidagi unlilar cho'ziqligini uchga: **to'liq cho'ziq, yarim cho'ziq va qisqa unlilarga** bo'linadi. Transkripsiyada to'liq cho'ziqlik unlidan keyin qo'yiladigan ikki nuqta [:], yarim cho'ziqlik bir nuqta [.] bilan ifodalanadi. Unlilarning qisqa talaffuz qilinishini ifodalovchi maxsus belgi yo'q, shuning uchun so'z oxiridagi ochiq bo'g'inda kelgan unli doimo qisqa talaffuz etilishini yoddan chiqarmaslik lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Fransuz burun unli tovushlari, og'iz unlilardan esa **[a-o--i]** tovushlari tarixiy cho'ziqlikka egadir:

Bu unlilar ritmik urg'uli yopiq bo'g'inda to'liq cho'zilib talaffuz qilinadi:

1.2 O'zbek tili unlilari sistemasining o'ziga xos xususiyatlari.

Tildagi xar bir fonema, avvalo, boshqa fonemalardan nima yordamida farqlanishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, "Har bir tilning barcha fonemalari butun bir qarama-qarshiliklar sistemasini tashkil etadi va unda har bir a'zo alohida fonema yoki ularning guruhi sifatida turli qarama-qarshiliklar turkumi orqali aniqlanadi. u esa, dialektikaning qarama-qarshiliklar qonunini eslatadi.

Yuqorida fonemaga ta'rif berilganda, uni tilning eng kichik birligi deb atadik.

Odatda, fonemani so'z, morfema va gaplar tarkibida ishtirok etuvchi eng kichik til birligi sifatida qaraladi.

Aslida fonema ancha murakkab birlik bo'lib, turli artiqulyatsion-akustik" belgilarni o'z ichiga qamrab olgan va bu belgilardan tashkil topgandir. Masalan, **t** fonemasida portlovchi belgisini **s** fonemasidagi sirg'aluvchi belgisiga qiyoslab ajratib ko'rsatish mumkin: **tol** —**sol**; **k** fonemasida jarangsizlik belgisini **g** fonemasidagi jaranglilik belgisi bilan qiyoslab ajratib olish mumkin: **kul** — **gul** va h. k. Demak, fonema turli belgilarning majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Xususan, til oldi, tish, portlovchi, jarangli belgilarning yig'indisi **d** fonemasini tashkil etadi. SHu belgilardan biri jarangli **d** fonemasini jarangsiz **t** fonemasidan farqlaydi. Ana shunday bir fonemani ikkinchisidan farqlash uchun xizmat qiluvchi artikulyatsion yoki akustik belgilar farqlanish belgilari yoki **fonologik belgilar** deb ataladi.

Matnning tarkibida farqlanish belgilari bilan birga farqlanmovchi, fonologik bo'lmagan belgilar ham bor. Masalan, o'zbek tilida unlilarning cho'ziq-qisqaligi, undoshlarning, yumshoq-qattiqligi fonologik jihatdan ahamiyatsizdir.

CHunki ular fonemalarning so'zlarni farqlashi uchun xizmat qilmaydi. Har bir tildagi fonemalarning farqlanish va farqlanmoqchi belgilari o'ziga xosdir. Bir tildagi fonologik bo'lmagan belgilar boshqa tilda farqlanuvchi belgilar bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi unli fonemalarga xos bo'lmagan cho'ziqlik-qisqalik belgisi nemis, Fransuz, qirgiz va turkman tillarida fonologik belgi xizmatini bajaradi

O'zbek tilida unli tovushlar ovoz paylarining o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ta'sirida tebranib, og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay o'tishi natijasida hosil bo'ladi. Ovoz paychalarining titrashidan bo'g'iz bo'shlig'ida sof ovoz yuzaga keladi. Unlilarni talaffuz qilishda og'iz bo'shlig'i aniq bo'ladi, asosiy vazifani esa ovoz paychalari, til va lablar bajaradi. Ovoz paychalarining harakati musiqiy ohangni vujudga keltiradi. SHuning uchun unli tovushlarda musiqiylik, ohangrabolik kuchli bo'ladi. Ularni nutq talabiga ko'ra istagancha cho'zib talaffuz etish mumkin.

O'zbek tilshunosligidagi adabiyotlarda unlilarning ko'proq uch belgiga asosan tasnifi uchraydi:

- 1) Paydo bo'lish o'rniga ko'ra(old qator-orqa qator);
- 2) Og'izning ochilash va tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra (keng-o'rtakeng-tor);

3) Labning ishtirokiga ko'ra (lablangan-lablanmagan).

Unlilarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra tasnifiga hozirgi kunda ikki xil yondashuv ni ko'ramiz. Birinchi yondashuvga muvofiq, unlilarning paydo bo'lish o'rnini, to'g'rirog'i, tilning gorizontaal harakati e'tirof etiladi. Ikkinchi yondashuvga muvofiq, unlilarning paydo bo'lish belgisi rad etiladi va shuning uchun ham bu belgiga ko'ra unlilarning tsnifi asossiz hisoblanadi.

Unlilarning paydo bo'lish o'rnini e'tirof etuvchilarning o'zlari ham ikki guruhga bo'linidilar. Birinchi guruh tilshunoslar uch o'rinni (qator) ajratadilar: til oldi (old qator), oraliq (indifferent), til orqa (orqa qator). Ikkinchi guruh tilshunoslar esa ikki o'rinni –til oldi (old qator) va tio orqa (orqa qator)ni e'tirof etadilar.

A. Abduazizov bu ikki guruh tilshunoslarining tasnif asoslariga o'z munosabatini bildiradi. Biroq A. Abduazizov indifferent unlilarning ajralish asosini boshqacharoq talqin qiladi. Uning fikricha, indifferent unlilarning ajralish asosini boshqacharoq talqin qiladi. Uning fikricha, indifferent unlilarning ajralish-ajralmaslik tadqiqot ob'ektiga bog'liq. V.V. Reshetov Toshkent shevasi talaffuziga asoslanib, o'zbek tilidagi **i, u, o', a** unlilarini oraliq unlilar deb ataydi. U o'zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi rus tili unlilar bilan qiyoslash asosida berilishini ta'kidlaydi.

Bizning nazarimizda, V.V. Reshetov oraliq (indifferent) unlilar haqida fikr yuritganda, o'zbek tili fonologik sistemasiga diaxron nuqtai nazardan yondashgan. U o'zbek tilining hozirgi Toshkent dialektida qadimgi qator bo'yicha zidlanuvchi unlilarning zidlanish belgisi yo'qolganligi, oraliq unlilarning hosil bo'lganligi borasida bahs yuritgan. Shuning uchun ham bu unlilarni ikki qatordagi unlilarning birlashuvidan –konvergensiyasidan hosil bo'lgan degan fikr bilan konvergentlar nomi ostida birlashtirgan. Xuddi shu fikr professor F. Abdullaevda ham uchraydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, turkiy tillarning vokalizmiga bag'aishlangan barcha tadqiqotlarda qator belgisi va lab ishtiroki belgisi unlilarni tasnif qilish uchun farqlovchi belgi sifatida qarab kelinadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, turkiy tillar uchun palatal va labial singarmonizmning xosligi, palatal garmoniyada unlilar qatorga ko'ra ohanglashuvi hech kimda e'tiroz tug'dirmaydi. O'zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun garchi singarmonizm amal qilmasa-da, lekin o'zbek shevalarida saqlanib kelayotganligi deyarli barcha shevashunos olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Shu bilan birga, qatorga ko'ra zidlanishni o'zida saqlab kelayotgan o'zbek shevalarida bir o'rinda qator bo'yicha korrelyatorlarning o'zaro almashinib ma'no farqlashi mavjudligi qatorni unlilar uchun farqlovchi belgi sifatida ajratishga imkon beradi. Masalan: Andijon shevasida **o't** (organizm)- **öt** (maysa, olov), **o'r** (o'tni o'rmoq) –**ör** (sochni o'rmoq), **öz** (olmosh)- o'z (bosib o'tmoq), **yn** (ovoz)-**un** (g'allaning tortilgani).

Lekin, hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun, darhaqiqat, qator belgisi fonologik qimmatini yo'qotgan. Shuning uchun hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo'la olmaydi.

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari ikki belgi asosida tasniflanishi maqsadga muvofiq:

- 1) Og'izning ochilish darajasiga ko'ra : keng, o'rta keng (o'rta tor, tor;
- 2) labning ishtirokiga ko'ra: lablangan, lablanmagan.

Lekin o'zbek shevalarida uchinchi belgi ham farqlovchi belgi hisoblanadi.

2.1§. Fransuz va o'zbek tili paradigmatic holatdagi unlilar oppozitsiyasi.

Unlilarning nutq jarayonida qanday voqelanishidan qat'iy nazar, sistemada o'zaro zidlanish asosida farqlovchi belgilar majmuasi sifatida tavsiflanisha ularning **paradigmatic** tavsifi deyiladi.

Har qanday paradigmatic tavsif sintagmatika materiallariga asoslanadi. Sintagmatikadagi unlilarning barcha belgilaridan farqlovchi belgilarning ajratib olinishi fonemalarni farqlovchi eng kichik birlik sifatida belgilashga imkon beradi. Invariantlar tavsifi quyidagicha bo'ladi:

- 1) keng, lablanmagan unli;
- 2) keng, lablangan unli;
- 3) o'rta keng, lablanmagan unli;
- 4) o'rta keng, lablangan unli;
- 5) tor, lablanmagan unli;
- 6) tor, lablangan unli.

O'zbek adabiy tilida farqlanish belgisiga ko'ra unlilar quyidagicha tavsiflanadi:

Og'izning ochilishiga ko'ra va lab ishtirokiga ko'ra.	Lablangan	Lablanmagan
Keng	a	
O'rta keng	e	o'
Tor	i	u

Yuqoridagi unlilar sintagmatik planda, bevosita nutq jarayonida turli xil qo'shimcha belgilarga ega bo'lib, invariantning xilma-xil variantlarni hosil qiladi.

Sistema-tekst oppozitsiyasiga muvofiq muayyan qurshovda kelgan real talaffuz qilinuvchi har qanday artikulyatsion-akustik birlik variant hisoblanadi.

Invariantlar **A** va **V**, **S** va **D** chiziqlaridagi belgilar munosabatidan tashkil topgan butunliklar bo'lsa, variantlar bu belgilardan tashqari tashqi doiradagi belgilarni ham o'zida namoyon qiladi. Bulardan **A-V** chizig'i fonemalarning lab belgisiga ko'ra zidlanishini o'zida namoyon qiladi. Bu jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unlilar o'zaro privativ zidlanadi. Ularning bir guruhi lablanish belgisiga ega, markirlangan, shuning uchun bu belgiga ko'ra kuchli a'zolar sanaladi.

Ikkinchi guruh esa zidlanishning kuchsiz a'zolari sanalib, bunday belgiga ega emas . Markirlanmagan. Shu bois ular –ishorasi bilan ifodalandi. **S-D** chizig'i og'izning ochilishi darajasi belgisiga ko'ra unlilar zidlanishini ko'rsatadi. Bunga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unlilar o'zaro gradual zidlangan. Ularning hammasi bu belgiga ega, lekin turli darajada .

Odatda, birinchi qarash o'zbek adabiy tilining tayanch shevasi hisoblangan toshkent shevasi talaffuziga , ikkinchi tasnif adabiy tilga oid deb qaraladi. Professor V.V.Reshetov Toshkent shevasi talaffuziga , asosanib, o'zbek tilidagi **i, u, o', a** unlilarini oraliq (indifferent) tovushlar deb ataydi. Bunda fiziologik jihatdan o'zbek tilidagi **i** unlisini orqa yo'nalishidagi til orqa yo'nalishidagi til old qator, **u , o'** unlilarini old yo'nalishidagi til orqa qator, **a** unlisini esa qator bo'yicha muayyan emas deb ko'rsatadi.

O'zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi Fransuz tili unlilari bilan qiyoslash asosida beriladi. Chunki ikki tildagi unli tovushlarning talaffuzini qiyoslashda akustik tomondan yaqin tovushlar , chunonchi o'zbek va Fransuz tillaridagi **i, u, a, e – i, u, o, e** kabilar fiziologik hosil bo'lish o'rniga ko'ra, bir tipdagi unlilar bo'lmay, balki ular til oldi va orqa qatorlarini har birining ikki xil ko'rinishiga egaligi, ya'ni til oldi va til orqa, yo'nalishidagi til oldi va til orqa, old yo'nalishdagi til orqa unlilarga bo'linishini hisobga olish orqali aniqlikka erishish mumkin. Ayrim tillar fonetikasiga doir adabiyotlarda oraliq qator tushunchasini uchratmadik.

Professor V.V.Reshetov o'zbek tili unlilari tasnifida birinchi bo'lib oraliq qator tushunchasini tavsiya etgan. Bizningcha, bu atamaning ishlatilishida boshqa bir tomon ham bor. Oraliq qator terminini umumiy tavsifida berilib, ularning har birini alohida tavsif qilishda esa, qator belgilarini ko'rsatmay o'tishi ko'rinidi. Bunda mashhur olimning o'zbek tili unlilarini tavsif qilishda bir yo'la fonetik va fonologik yo'nalishini hisobga olganlagini sezish mumkin. Haqiqatan ham, ayniqsa o'zbek tilidagi **i, u, o', a** unlilarning til oldi undoshlaridan keyin esa til oldi, til

orqa undoshlaridan keyin esa til orqa variantlarga ega bo'lishi fonologik jihatdan qator belgisi ahamiyatsiz ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, o'zbek tili unlilaridan **i, u, o', a**; Fransuz tili unlilaridan **i, u, o, e** qator belgilari bilan farqlanmay, fonologik nuqtai nazardan "oraliqda" qolgan bo'lib hisoblanadilar. V.V.Reshetovning oraliq qator unlilarini alohida ajratishiga sabab ham ularning fonologik tabiatini nazarga olganligidir.

O'zbek tili unlilarini til oldi va til orqa qatorlarga bo'lish faqat fonetik jihatdan tasdiqlanishi mumkin. Biroq bu o'rinda ham unlilarning til orqa va til oldi variantlarga ega bo'lishi undoshlarning ta'sirida ro'y berishi ko'rsatiladi. Unlilarning bu xususiyati qator belgisining yohud o'zi fonologik emasligini ifodalaydi. Bunda barcha til oldi unlilari – lablanmagan va til orqa unlilari –lablangan ekanligi ularni birgalikda qarashni taqazo etadi.

Biroq bu tushunchani til o'rta, markaziy va aralash qatordan farqlash lozim. Talaffuzni nazarda tutilsa, oraliq qator aniq artikulyatsiyaga ega bo'lmay, unlilar undoshlar ta'sirida til oldi yoki til orqa unlisi sifatida ko'rinadi. O'rta yoki markaziy qator unlisining talaffuzida til uncha yassi holatda bo'lmay, uning o'rta yoki markaziy qismi ko'tarilgan bo'ladi. Aralash qator unlilarining talaffuzida esa til yassi holatda bo'ladi, biror qismining ko'tarilishi uncha sezilmaydi (bunday unlilar ingliz tilida bor). Til o'rta , markaziy va aralash qator unlilar tushunchalari fonetik-fiziologik tasniflarda keng qo'llaniladi va ularni fonologik nuqtai nazardan ishlatganda, unlilarning farqlanish va farqlanmaslik belgilari e'tiborga olinadi. Oraliq qator tushunchasi o'z-o'zidan unlilarning fonologik tabiatini ham izohlay oladi.

2.2. Fransuz va o'zbek tili sintagmatik holatdagi unlilar oppozitsiyasi.

Paradigmatik jihatdan til sistemasida muayyan oppozitsiyada bo'lgan unlilar nutq jarayonida yondosh tovushlar bilan sintagmatik munosabatda bo'lib, turli nushalarda, bir qancha variantlarda talaffuz qilinadi. Borliqdagi alohida narsalar betakrorlik, cheksizlik xususiyatiga ega.

SHu bilan birga bu cheksizlik cheklanganlik bilan ham zidlanadi. Chunki har qanday alohidalik qanchalik o'ziga xoslik betakrorlik xususiyatiga ega bo'lsa ham, baribir, ma'lum belgisi bilan ma'lum turchaning vakili sanaladi. Masalan, oldimizdagi bir tup gilos shu oilaga mansub barcha giloslarning vakili bo'lishi bo'lishi bilan birga umumiy giloslik belgisini namoyon qiladi.

SHuningdek, ikki tup gilos hech qachon bir-biriga aynan o'xshamaydi. Ana shu o'xshamaslik belgisini uning betakrorligini, cheksizligini ko'rsatadi.

Lekin har qanday betakror, alohida narsalarni ma'lum o'xshash jihatlari asosida muayyan xususiylklarga birlashtiramiz. Masalan, o'sha bir tup gilos "umuman gilos"ning ma'lum sortiga, aytaylik, qo'qon gilosiga mansub. Demak, u gilolar oilasidan "qo'qon gilos"ning umumiy belgisini o'zida namoyon qiladi. SHuningdek, qo'qon gilos ham turli belgilarning o'ziga ko'ra (rangi, pishish davri va boshqalar) yana turlarga bo'linadi. O'sha bir tup gilos qo'qon gilosining aprely oyining oxirida pishadigan, xalq tilida "birinchi" deb yuritiladigan turiga, yoki may o'rtalarida pishadigan xalq tilida "ikkinchi" deb yuritiladigan turiga, yoki iyun oyida pishadigan, xalq tilida "uchinchi" deb yuritiladigan turiga mansub bo'lishi mumkin.

SHu bilan birga, bu turga mansub bo'lgan tuplar soyada yoki quyosh tushadigan erda o'sishiga ko'ra, mevasining mazasi, tuproq tuzilishiga ko'ra, yaproqlarining rangi bilan bir-biridan farq qiladi. Biroq, bu qo'shimcha belgilardan qat'i nazar, baribir, biz ularni qo'qon gilosning birinchisi, ikkinchisi yoki uchinchisi deyaveramiz.

Xuddi shunga o'xshash muayyan unli fonema ma'lum fonetik qurshovda turli o'zgarishlarga uchraydi. O'zgarishlar xilma-xil, cheksiz bo'lishi mumkin. Lekin ana shu cheksizliklarni ham ma'lum belgilarga ko'ra muayyan umumiyliklarning ma'lum belgilariga variantiga birlashtirish mumkin. Ana shunday birlashtirish asosida variantlar tiplari vujudga keladi. Masalan: jo'nalish kelishigi qo'shimchalarining **-ka, -qa, -g'a, -a, -ga,** kabi alohidaliklari, bir tomondan, jo'nalishlik umumiy belgisiga jo'nalish kelishigi invariantiga birlashadi, ikkinchi tomondan, **-ka, -qa, -ga** variantlari "qurshov" belgisiga ko'ra pozitsion variantga, **a** varianti "hudud" belgisiga ko'ra fakultativ variantga, **-g'a** varianti "talaffuz qiluvchi shaxs" belgisiga ko'ra individual variantlarga birlashadi.

Demak, invariantlarning bevosita kuzatishda berilgan variantlarini ham ma'lum bir guruhlarga birlashtirishga asos bo'ladigan belgilar bo'ladi. Ana shu belgi cheksizlikni cheklangan turlarga birlashtirishga imkon beradi.

Quyida o'zbek tilidagi oltita unli fonemaning sintagmatik planda qanday variantlarga ega bo'lishi to'g'risida fikr yuritamiz.

Har qanday fonema to'rt vazifani bajaradi:

- 1) So'z va morfemalarni moddiy jihatdan shakllantiradi;
- 2) Fonologik jihatdan so'z va morfemalarni farqlaydi;
- 3) So'z va morfemalarni chegaralaydi (masalan, "ng" fonemasi so'zning boshida kelmasligi);
- 4) Eshitib his qila olish va tanib olish (pertseptiv) vazifasini bajaradi.

Fransuz tilidagi unli fonemalar o'zbek tilidagi singari sintagmatik planda quyidagi variantlarga ega bo'ladi:

- 1) So'z va morfemalarni moddiy jihatdan shakllantiradi;
- 2) Fonologik jihatdan so'z va morfemalarni farqlaydi;
- 3) So'z va morfemalarni chegaralaydi ;
- 3) Eshitib his qila olish va tanib olish (pertseptiv) vazifasini bajaradi.

Ma'lum fonemaning variantlari boshqa fonemaning variantlariga o'xshab qolish darajasida o'zgarishi mumkin. Lekin bizning so'z yoyoki morfemani eshitib his qila olishimiz , ya'ni pertseptiv funktsiya ularning qaysi fonema vakili ekanligini payqab olishimizga imkon beradi.

A.Abduazizov unlilarning sintagmatik o'zgaruvchanligi haqida fikr yuritar ekan, o'zbek adabiy tilidagi unli fonemalar ikki asosiy turdagi allafonlarga , ya'ni variantlarga ega bo'lishini ko'rsatadi:

- 1) yondosh tovushlar ta'siridagi kombinator variantlar.
- 2) urg'u ta'siriga uchrovchi pozitsion variantlar. Muallif o'zbek tilidagi unlilarning bu ikki varianti haqida ma'lum darajada ma'lumot berishga harakat qiladi.

Lekin bu ikki turdagi variantdan tashqari, dialektal va individual variantlar ham mavjudki, ular haqida fikr yuritmaslik fonema variantlari xususida to'liq ma'lumot berishga monelik qiladi.

Unli fonemalarning fakultativ (dialektal) variantlari haqida V.V.Reshetov, F.A.Abdullaevlar tomonidan birmuncha ma'lumot berilgan.

Tilning tovush sistemasini o'rganishda fonetika va fonologiyaning chambarchas bog'liqligi, bir-birini o'zaro to'ldirishi ko'zga tashlanadi. Biroq, ba'zi tilshunoslar fonetika va fonologiyani ayrim holga qarab fonetika nutq bilan, fonologiya til bilan ish tutadi, shuning uchun ham biz uchun fonologiya zarur deydlar. Fonetika va fonologiyani bir-biridan uzib olish tilning tovush sistemasini eksperimental (spektrografik, somatik va hokazolar.) metodlar orqali aniq va to'la tekshirishning qiimmatini inkor etadi. Bizningcha, eksperimental-fonetik tekshirishlar fonologik tahlil uchun to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Hozirgi zamon tilshunosligida katta burilish yasagan dixotomik fonologiya nazariyasi ham eksperimental tekshirishlarga asoslanib jahon tillarida uchraydigan barcha fonemalarning artikulyatsion-akustik xususiyatlarini o'n ikki nafar farqlanish belgilari yordamida aniq lash mumkinligini ko'rsatadi. Fonetikaga doir adabiyotlarda tilning tovush sistemasi artikulyatsion, akustik va lingvistik nuqtai nazaridan tekshirilishi zarurligi inkor etilmaydi. Bunday qarash yangi bo'lmay, balki mashhur tilshunos I. A. Boduen de Kurtenening quyidagi so'zlariga tayanadi «... Fonologiyaning vazifasi nutq tovushlarini, asosan, akustik jihatdan o'rganish emas, balki ularning hosil bo'lishida zarur bo'lgan fiziologik funktsiyalarni ham o'rganish va yoritishdan iborat». Ko'pgina tilshunoslarning fonologiyani «funktsional fonetika» deb atashlari ham bejiz emas.

Fonemalarning hosil bo'lish o'rni va usuliga ko'ra, tasniflash fonetik va fonologik tasnif uchun umumiy usul hisoblanadi. Agar fonetik tasnif fonemalarning barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlariga asoslansa, fonologik tasnif, shu xususiyatlar ichidan asosiylarini tanlab oladi: ularga

funksional jihatdan qarab, farqlanish belgilarini topadi. Fonemalarni artikulyatsion va akustik jihatdan farqlashga xizmat qiluvchi alomatlar farqlanish belgilari (differentzialnyy priznak) deb yuritiladi. Fonema tushunchasi ana shunday belgilarning yig'indisi sifatida tushuniladi.

Farqlanish belgilari o'z-o'zidan kelib chiqmay, balki fonemalarni so'zlar va morfemalarda bir xil o'rinlarda solishtirish orqali (masalan: **bir** — **bur**, **qil** — **qul** kabi) namoyon bo'ladi. Struktural tilshunoslikda tildagi birliklarni bir xil o'rinlarda bir-biri bilan qiyoslashni **paradigmatik aloqalar** deb yuritiladi. Fonemalarni paradigmatic planda qarash ularning farqlanish belgilarini aniqlash uchun etakchi usul hisoblanadi. Professor. T. P. Lomtevning yozishicha, «Farqlanish elementlari berilganlik xarakterida bo'lmasligi kerak; ular ma'lum printsiptan yordamida olinib, shu printsiptan asosida nazariyaga tatbiq qilinishi zarur». Bunday printsiptan avval tovushlarni eksperimental fonetika usullari yordamida tekshirishni talab keladi. Ana shundagina tovushlarning tildagi funksional tomonlarini o'rganish, ya'ni fonologik tahlil uchun ma'lum yo'l ochiladi.

Yukorida aytilganidek, **o'zbek** tili unlilarining paydo **bo'lish** o'rniga ko'ra belgilari fonologik jihatdan ahamiyatli bo'lmay, ular o'zgaruvchidir. Biroq, o'zbek tidi unlilari hamma o'rinlarda lablanganlik va lablanmaganlik belgilarini saklab krladilar. Bundan tashqari, yuqori, o'rta va quyi ko'tarilishdagi unlilar biror o'rinda tilning vertikal holati bir oz pasayishi bilan fonologik jihatdan farqlanmasdan qolmaydilar. Aks holda fonologik neytralizatsiya ruy berib, bu barcha artikulyatsion-akustik belgilar bilan bir xil bo'lgan ikki fonemaning qo'shilishiga olib kelardi va bunday birlikii «arxifonema» deb atash mumkin bulardi.

O'zbek tili unlilari esa xosil bo'lish o'rniga ko'ra, undoshlar ta'sirida sifat va mikdor jihatdan farq, qiluvchi ayrim variantlariga ega bo'ladilar, xolos. Demak, tilning ko'tarilish i va labning ishtiroki **o'zbek** adabiy tili unli fonemalari uchun fonologik ahamiyatiga egadir. **O'zbek** adabiy tili unlilarini bir yo'la tilning ko'tarilish i va labning ishtiroki buyicha qarama-qarshi qo'yilsa,

«Polivanov sxemasi» yuzaga keladi. Biroq, ular ikkitadan ayrim holda qarama-qarshi qo'yilsa, bir belgi bilan ham farqlanishlari mumkin: i-u, e-u, a-o. E. D. Polivanovning fikriga asoslangan N. S. Trubetskoyning **o'zbek** tili unlilarini fonologik jihatdan «jahon tillarida juda kam uchraydigan, ikki klassli, uch pog'onali, to'rtburchak sistemasi» deb ta'riflashi o'z kuchini saklab qoladi. Fonemalarning va ularning farqlanish belgilarining qaysi o'rinda uchrashi, so'z yoki bo'g'inlar taqsimoti va qaysi o'rinlarda farqlanish belgilarining neytralizatsiya qilinishi mumkinligi masalalari fonemalarning bir-biriga qarama-qarshi qo'yish holatining yo'qolishi fonologik jihatdan sintagmatik planda tekshirish metodi sifatida qaraladi.

Bibliographie.

1. **Karimov I.A.** “Чет тилларни ўзрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора – тадбирлари тўғрисида” .Тошкент. ПҚ 17/85.
2. **AGREN, J.** 1973. Etude sur quelques liaisons facultatives dans le français de conversation radiophonique. *Acta Universitatis Uppsaliensis*, Uppsala. p.15.
3. **ARMSTRONG, N.** 1996. Variable deletion of French /l/: linguistic, social and stylistic factors. In *Journal of French Language Studies* n° 6, p 1-22.
4. **ASHBY, W. J.** 1984. The elision of /l/ in French clitic pronouns and articles. In E. Pulgram (Dir), *Romanitas : Studies in Romance Linguistics*, 1-16. University of Michigan Press, Ann Arbour. P.19-60.
5. **Bibeau, G.** 1975. Introduction à la phonologie générative du français, Montréal : Didier. P 31.
6. **BLANCHE-BENVENISTE, C.** 1997. *Approches de la langue parlée en français*. Ophrys, Paris. P. 52.
7. **BLANCHE-BENVENISTE, C.** et C. JEANJEAN 1986. *Le français parlé : transcription et édition*. Paris : Didier. P 231
8. **BUTLER, C.** 1985. *Statistics in Linguistics*. Blackwell, Butler. p 156.
9. **Cailleux, André ; Jean Komorn.** 1981. Dictionnaire des racines scientifiques, Paris : CDU p .94.
10. **Chomsky, Noam ; Morris Halle.** 1968. *The Sound Pattern of English*, New York : p.36.

11. **Cornulier, Benoît** de. 1978. Syllabe et suite de phonèmes en phonologie du français, p 85.
12. **Cottez, Henri**. 1985. Dictionnaire des structures du vocabulaire savant, Paris : Le Robert. p 397.
13. **Danlos, Laurence**. 1981. Représentation informatique d'informations linguistiques : les constructions N être Prép X, Thèse de troisième cycle, Université Paris p.7.
14. . Shigarevskaja N. Traité de phonétique française. Cours théorique
15. www.ViaVichelin.fr.
16. www.iptglom.uz.
17. www.iptglom.uz.
18. www.pedagog.uz
19. www.Ziyonet.uz
20. www.edu.uz